

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



KURS ISHI

**Mavzu: 4- sinf o'quvchilarida oila, maktab, jamoatchilik hamkorligini
shakillantirish**

Bajardi: R. Malikova

Qabul qildi: M. Rahmatullaeva

TOSHKENT 2014 yil

4- sinf o`quvchilarida oila, maktab, jamoatchilik hamkorligini shakllantirish

Reja

Kirish

Asosiy qism

1.O`quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi konsepsiyasi

2.O`quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligini amalga oshirish tamoyillari va bosqichlari, mexanizmi va uslublari.

3.4-sinf o`quvchilarida oila, maktab, jamoatchilik hamkorligini shakllantirishning metodik mazmuni.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

Kirish

Mustaqil O'zbekistonning xalqparvar siyosati natijasida ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-siyosiy, etnik-madaniy hayotida kun sayin jiddiy o'zgarishlar bo'lmoqda. Jamiyatimiz moddiy va ma'naviy rivojining yangi omillari xalqning milliy o'z-o'zini anglashda samarali ta'sir ko'rsatayapti. Mamlakatimiz hayotining barcha tomonlarini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish xalqimiz madaniy kuch-qudratini ma'naviy jihatdan tiklash, g'oyaviy jihatdan yangilash va o'z-o'zini anglashdan iborat muhim vazifalarni qo'ymoqda. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining uzluksiz rivojlanishi uchun iqtisodiy, siyosiy, huquqiy shart-sharoit yaratilmoqda. Jumladan, hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qator me'yoriy hujjatlarda o'qitishni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish sohasida qator tadbirlar belgilab qo'yilgan. Xususan, boshlang'ich ta'limda o'qitishga alohida e'tibor qaratilib, bugun zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanish qayd qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997 yil 29 avgustdagi IX sessiyasida qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da oliy ta'lim oldiga qo'yilgan qator muhim vazifalar belgilab berilgan. Jumladan, ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasining asosli mexanizmlarini ishlab chiqish, uni amaliyotga joriy etish, o'qishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish, masofaviy ta'lim tizimi texnologiyasi va vositalarini ishlab chiqish va o'zlashtirish, yangi pedagogik hamda axborot texnologiyalari asosida modul tizimidan foydalangan holda talabalar o'qishini jadallashtirish ana shunday dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. Yuqori malakali pedagog kadrlarga bo'lgan talablar ortib borayotgan hozirgi sharoitda barkamol yosh avlodni asrlar davomida shakllanib kelayotgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash layoqatiga ega bo'lgan, fanning fundamental asoslarini puxta egallagan, pedagogika va psixologiya fanlarining zamonaviy metodlari bilan chuqur qurollangan, kasbiy tayyorgarligi yuqori darajada bo'lgan hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini yaxshi o'zlashtirib olgan ijodkor pedagog kadrlarni shakllantirish talab etiladi. Bunday vazifalarni

bajarish mavjud ta'lim tizimini mukammallashtirishni, uni hozirgi zamon talablariga mos rivojlantirishni, xususan oliy pedagogik ta'lim paradigmasini zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o'zlashtirishga, oliy pedagogik ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fundamental bilimlarni mustahkam egallashga qodir pedagoglar tayyorlashga yo'naltirishni taqozo etadi. Darhaqiqat, yangilangan ta'lim tizimini joriy etishda har bir o'qituvchi o'zining faniga va barkamol avlod ta'lim-tarbiyasiga oid axborotlarni muntazam o'rgana borib, ularni o'z mehnat faoliyatida izchil qo'llay bilish mahorati oqibatidagina ta'lim-tarbiya jarayonini zamon talablari darajasida tashkil eta olishi mumkinligi sir emas. Bu esa ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi. Shu o'rinda Prezidentimiz I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida : "ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi" deb aytgan so'zlarini ta'kidlab o'tish joizdir. Bugungi maktab o'qituvchisi jamiyatimizda ro'y berayotgan tub o'zgarishlarni o'z ko'zi bilan ko'rayotgan, uni aql chig'irig'idan o'tkazadigan, har bir masalaga o'z munosabatini bildiradi oladigan, dunyoqarashi rivojlangan, fikrlash olami keng o'quvchidir. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisning IX Sessiyasida (1997 yil, 29 avgust) so'zlagan nutqda: "Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta bilim kerak. Ammo bilim o'z yo'liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir" – deb qayd qiladi. Shunday ekan, bolaning mustaqil va erkin shaxs sifatida shakllanishi uchun eng avvalo oila mustahkamligi ta'minlanishi zarur. Oila jamiyat tayanchi ekanligini unutmasligimiz lozim. Ammo barcha vazifalarni oilaga tashlash ham noto'g'ri. Oiladagi ta'lim-tarbiyaning to'ldiruvchi maktab va jamoatchilik mavjud. Mana shu tashkilotlarning o'zaro hamkorlikda ishlashi bola tarbiyasi, xususan barkamol shaxs tarbiyasi uchun zarurdir. Prezidentimiz tashabbusi bilan qabul qilingan "Mustahkam oila yili" Davlat dasturini amalga oshirish jarayonida oila, mahalla, ta'lim maskanlari o'rtasidagi hamkorlikni yanada kuchaytirish, har jihatdan sog'lom va barkamol yoshlarni voyaga yetkazish

masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yilda ishlab chiqilgan "Oila, mahalla, maktab hamkorligi" Konsepsiyasi asosida umumta'lim maktablari bilan o'zini o'zi boshqarish organlari va oila institutlari o'rtasida yaqin hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Bu esa o'quvchilarning qiziqishi va qobiliyatini o'z vaqtida aniqlash, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni ta'limning keyingi bosqichiga yo'naltirishda muhim omil bo'lmoqda. Ayni paytda "oila-mahalla-maktab" hamkorligi oilalardagi ma'naviy-axloqiy muhitni yanada yaxshilash, ularda ulg'ayayotgan o'g'il-qizlarni zamon talablari asosida, milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda o'z samarasini berayotir. "Oila-mahalla-maktab" hamkorligining yosh avlod ta'lim-tarbiyasidagi ahamiyati beqiyosdir. Yigit-qizlarning oila haqidagi tasavvurini kengaytirishga xizmat qiladigan "Oila – muqaddas tushuncha", "Oilaviy an'analar", "Ota va ona – oila tayanchi", "Oilada sharqona sadoqat" mavzularidagi ma'rifiy tadbirlar, tanlov va davra suhbatlari yoshlarimiz uchun har tomonlama foydali bo'lmoqda. Ayniqsa, ta'lim maskanlarida o'tkazilayotga "Bola tarbiyasi – kelajak mevasi", "Ilm ol, hunar o'rgan", "Tanlagan kasbing – sening kelajaging" hamda "Etuk mutaxassis – kelajak mevasi" mavzularidagi suhbatlar, savol-javob kechalari yaxshi samara berayotir. Ushbu tadbirlarga malakali professor-o'qituvchilar, iqtidorli talaba-yoshlar hamda ibratli oilalar vakillari jalb etilayotgani ularning ta'sirchanligini oshirmoqda. Erta turmush qurish va yaqin qarindoshlar o'rtasida nikohlarning oldini olishga qaratilgan tushuntirish ishlariga ham shahar va tumanlarda alohida e'tibor qaratilmoqda. "Bir bolaga yetti qo'shni ota-ona" ma'naviy-ma'rifiy tadbirlari doirasida yoshlarni oilaviy hayotga ma'naviy-ruhiy tomondan tayyorlash, ularda oilaga mas'uliyat hissini uyg'otish yuzasidan olib borilayotgan ishlar ham e'tiborga sazovor. Aholiga ta'lim tizimidagi islohotlar samaralari haqida kengroq tushuncha berish maqsadida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qoshida "Ota-onalar universitetlari"ning faoliyatiga bag'ishlangan burchaklar tashkil etilmoqda, buklet, eslatmalar chiqarilmoqda, ular hisobotlari eshitilmoqda. Darhaqiqat, Prezidentimiz rahnamoligida amalga oshirilayotgan hech kimdan kam bo'lmagan, yuksak

ma'naviyatli avlodni voyaga yetkazish yo'lidagi keng ko'lamli ishlarda oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligining ahamiyati beqiyos. Zero, ta'lim vatarbiyaning uyg'unlikda olib borilishi mustaqil fikrli, barkamol yoshlarni ulg'aytirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunga nazar tashlasak ham oila, maktab, jamoatchilik hamkorligiga alohida ahamiyat kasb etadi.

Biz yuqoridagi fikrlarga tayangan holda kurs ishning mavzusini "4-sinf o'quvchilarida oila, maktab, jamoatchilik hamkorligini shakllantirish" deb nomlanadi

Kurs ishining maqsadi: 4-sinf o'quvchilarida oila, maktab, jamoatchilik hamkorligini shakllantirish yo'llari, usul va metodlarin ishlab chiqish.

Kurs ishining ob'ekti: 4-sinf o'quvchilarida oila, maktab, jamoatchilik hamkorligini shakllantirish jarayoni.

Kurs ishining predmeti: Ta'lim-tarbiya jarayonida oila, maktab, jamoatchilik hamkorligini shakllantirishning (metod va vositalari) mazmuni.

Kurs ishining vazifalari:

Maktab ta'lim tizimida o'quvchilarini tarbiyalashda oila, maktab, jamoatchilik hamkorligini shakllantirishning dolbzarb muamolarini taxlil qilish;

4-sinf o'quvchilarida oila, maktab, jamoatchilik hamkorligini shakllantirishda sinf rahbarining tutgan o'rnini aniqlash;

4-sinf o'quvchilarida oila, maktab, jamoatchilik hamkorligini shakllantirishning metodik asoslarini yoritib berish;

4 –sinf o'quvchilarini tarbiyalashda oila, maktab, jamoatchilik hamkorligini shakllantirish bo'yicha ilg'or pedagogik texnologiyalarning qo'llash orqali tarbiyada muammolarini ochib berish samaradorligiga erishish.

Kurs ishning tuzilishi: kirish, uch bo'lim, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Asosiy qism

1."O`quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi" konsepsiyasi.

«Kelajak bugundan boshlanadi.

Hozir tarbiya masalasiga e'tibor
berilmasa, kelajak boy beriladi...»

I.A.Karimov

Tarbiya jarayoni ishtirokchilari sa'y harakatlarini birlashtirish maqsadida 1993 yilda ishlab chiqilgan "Oila, mahalla, maktab hamkorligi" Konsepsiyasi yoshlarni istiqloq g'oyalariga sadoqatli, ma'naviy barkamol, vatanparvar etib tarbiyalashda keng jamoatchilik faoliyatini muvofiqlashtirish borasida muhim dasturilamal bo'ldi. Mamlakatimizda keying yillarda qabul qilingan ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qator me'yoriy hujjatlar, jumladan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi" bozor iqtisodiyoti sharoitlarida muvaffaqiyatli ishlay oladigan, mustaqil fikrlovchi kadrlarni tayyorlashda oila, mahalla va maktab nufuzini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishni taqazo etadi. Zero, ta'lim-tarbiyani takomillashtirishda ham davlat bosh islohotchidir Prezidentimiz ta'kidlaganidek: birinchidan, yosh avlodga o'zligimizni, muqaddas an'alarimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo'yilgan oliy maqsad va vazifalarni anglash singdirish; ikkinchidan, jamiyatimizda bugun mavjud bo'lgan hurfirklikdan qat'iy nazar yoshlarni jipslashtiradigan, xalqimiz va davlatimiz daxlsizligini asraydigan yagona g'oya – milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash; uchinchidan, yoshlarni baynalminal, jahon hamjamiyatida, xalqaro maydonda O'zbekistonga munosib hurmat tug'dirish uchun intilish ruhida tarbiyalash; to'rtinchidan, yosh avlodni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat, yuksak odamiylik va insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash;

beshinchidan, yosh avlodni ulug` ajdodlarimizning munosib vorislari ekanliklari, ayni vaqtda jahon va zamonning umumbashariy yutuqlarini egallash ruhida tarbiyalash O`zbekistonda o`quvchi-yoshlarni tarbiyalashning eng dolzarb masalasidir. Davlatimiz rahbari ko`rsatib berganidek, ta`lim-tarbiya sohasidagi islohotlar: birinchidan, ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta`sir ko`rsatishga, umuman mamlakatdagi mavjud muhitni butunlay o`zgartirishga; ikkinchidan, insonning hayotda o`z o`rnini topishini tezlashtirishga; uchinchidan, jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirishga; to`rtinchidan, insondagi mavjud salohiyatni to`la ro`yobga chiqarishga, beshinchidan, umumiy va maxsus bilimlarga ega, ongli, tafakkuri ozod, zamonaviy dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga voris bo`lgan, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etadigan komil insonlarni tarbiyalashga qaratilgan. Mazkur Konsepsiyada taraqqiyotimizning ma`naviy – axloqiy negizi – milliy va umuman insoniy qadriyatlar uyg`unligi ekanligi e`tirof etiladi, milliy va umuminsoniy tarbiyaning quyidagi o`zaro aloqalar uyg`un yo`nalishlari belgilab olindi: Milliy tarbiya yo`nalishi orqali o`zlikni anglash, vatanparvarlik, milliy g`urur, millatlararo muloqat madaniyati, milliy mafkuraviy onglilik, milliy odob, fidoyilik kfazilatlari shakllantiriladi. Umuminsoniy yo`nalishda huquqiy, iqtisodiy, jismoniy, aqliy, estetik, ekologik, gigiyenik va boshqa tarbiya yo`nalishlari amalga oshiriladi. Bu Konsepsiyaning milliy davlatchilik va jamiyat qurilishi talablariga mosligini ta`minlaydi. Sog`lom oilada barkamol avlod voyaga yetadi. Mamlakatimizda oilalarni har tomonlama qo`llab-quvvatlash, ayniqsa, yosh oilalar uchun qulay turmush sharoitini yaratish borasida amalga oshirilayotgan keng ko`lamli ishlar ana shu ezgu maqsadga xizmat qilmoqda. Davlatimiz rahbarining 2009 yil 13 apreldagi “Ona va bola salomatligini muhofaza qilish, sog`lom avlodni shakllantirishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida” hamda 2009 yil 1 iyulda qabul qilingan “2009-2013 yillarda aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog`lom bola tug`ilishi, jismoniy va ma`naviy barkamol avlodni

voyaga yetkazish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari Dasturi to'g'risida"gi qarorlari bunday xayrli ishlarning izchilligini ta'minlashga xizmat qilayotir. Yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli tibbiy-ijtimoiy islohotlar aholiga zamonaviy tibbiy xizmatni yaqinlashtirish, reproduktiv salomatlikni mustahkamlash, ekstragenital kasalliklarni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Skrining xizmati qamrovining kengayayotgani, perinatal, pediatriya, akusher-ginekologiya sohalarida erishilayotgan natijalar onalik va bolalik muhofazasida yaxshi samara berayotir. Bu borada yana bir muhim loyiha – homilador ayollarni polivitaminlar bilan ta'minlash chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad – oilada sog'lom farzandlar tug'ilishini ta'minlash va tug'ma nogironlikning oldini olishdir. Yurtimizdagi oilalarning demografik holati, yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar, oilalarda tibbiy madaniyatni oshirish, reproduktiv salomatlikni mustahkamlash, birlamchi tibbiy-profilaktika ko'rigi qamrovini kengaytirish, istalmagan homiladorlikning oldini olishda zamonaviy tibbiyot yutuqlaridan samarali foydalanish masalalariga bag'ishlangan tadbirlar sog'lom oilada barkamol avlodni voyaga yetishini ta'minlaydi. Konsepsiyada oilaga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekistonda 1998 yil "Oila yili" deb e'lon qilinishi oilaning tarbiyaviy rolini yanada kuchaytirdi. Qayd etilgan masalalar jamiyatimiz, xalqimiz, davlatimiz taqdiri va uning dunyo miqiyosidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy salohiyatini shakllantirishda g'oyat katta ahamiyatga ega ekanligiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 26-martda qabul qilingan "Ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish, diniy aqidaparastlikning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 130-sonli qarori misol bo'la oladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 30-moddasida "Voyaga yetmagan bolalarni ota-onalari yoki qonuniy vakillari bolaning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishlari shart hamda ularning tarbiyasi, maktabgacha, umumiy o'rta,

o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi olishlari uchun javobgardirlar”, deb belgilab qo`yilgan. “Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi”ning 3.2-bandida esa ta`lim oluvchilarning o`qishi, turmushi va dam olishi uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi vazifalar hal etilishida jamoatchilik boshqaruvini rivojlantirishga alohida e`tibor berilgan. Bu “Oila, mahalla, maktab hamkorligi” bugungi kunning ma`naviy, ma`rifiy, mafkuraviy, tarbiyaviy zarurati ekanligini bildiradi. Yosh avlodni ma`naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqimizning boy milliy, madaniy, tarixiy an`analariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, zamonaviy pedagogik texnologiyaning ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilishi; shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligini ta`minlash; umumiy hamda milliy pedagogik madaniyatni oshirish; mamlakatimiz fuqarolari orasida milliy mafkuraviy tarbiya ishlarini takomillashtirish – “Oila, mahalla, maktab hamkorligi” Konsepsiyasining asosiy maqsadidir. O`zbekistonda yuz berayotgan o`zgarishlar “Oila, mahalla, maktab hamkorligi” yo`nalishida bola tarbiyasida oila, ota-ona, mahalla, maktabning asosiy vazifalarini mazmunan yangilab hayotga tatbiq etishni taqazo qiladi. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilanganidek, “Oila jamiyatimizning asosiy bo`g`inidir” . Haqiqatan ham oila bu jamiyatni tashkil etuvchi katta kuchdir. Jamiyat mavjudligi mana shu oilaga tayanishi hech kimga sir emas. Oila jamiyatning ajralmas zarur qismidir. Unda inson dunyoga keladi. Shu paytda oila insoniyatning uzluksiz naslini davom ettiruvchi bo`lib qolaveradi. Shundan kelib, oila ikkita ulkan ijtimoiy vazifani farzandlarni dunyoga keltirish hamda ularga to`g`ri tarbiya berishni yo`lga qo`yish muhim ahamiyatga ega. Chunki oilada katta yoki kichik narsa bo`lmaydi. Hamma narsa, xatto eng oddiy bo`lib ko`ringan oilaviy munosabatlar bolaga katta ta`sir ko`rsatadi. Shunga muvofiq “Oila, mahalla, maktab hamkorligi” Konsepsiyasini amalga oshirish jarayonida oilaning quyidagi vazifalari belgilab qo`yilgan: - oilada sog`lom muhitni yaratish, milliy ruh va turmush tarzini hisobga

olish, farzandlar uchun ota-ona har tomonlama o`rnak bo`lishi, farzandlarning ota-onasiga,

Vataniga muhabbat tuyg`usini shakllantirish, o`zaro g`amxor bo`lishni ta`minlash;

- oilada huquqiy tarbiyani yaxshilash, oila a`zolarining o`z huquq va burchlarini anglab yetishlarini va ularga rioya qilishlarini ta`minlash;

- farzandlariga chuqur dunyoviy bilim asoslarini berish, ma`rifatli va ma`naviyatli kishilar bo`lib yetishishlarini ta`minlash;

- bozor munosabatlariga mos bo`lgan kasb-hunar o`rgatish, iqtisodiy tushunchalarni farzandlar ongiga singdirish;

- bolalarning ma`naviy barkamol va jismonan sog`lom bo`lishlari uchun iqtisodiy muhitni yaratish; bolalarni mustaqil fikrlashga o`rgatish; istiqloq g`oyalari va milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash; bolalarning bo`sh vaqtlarini pedagogik nuqtai nazardan kelib chiqib unumli tashkil qilish, ularga qo`shimcha ta`lim berish; farzandlariga mavjud bo`lgan iste`dod kurtaklarini yaratish; o`z farzandlarining maktab, mahalla, davlat va jamiyat oldidagi burchlarini to`la ado etishlari uchun oilada mas`uliyatli bo`lish;

- ota – onalar o`zlarining pedagogik va psixologik bilim saviyalarini doimo oshirib borish; bolalarda tejamkorlik va ishbilarmonlikning ma`naviy-axloqiy tomonlarini shakllantirish; oilada milliy va umuminsoniy tarbiyaning barcha yo`nalishlarini uyg`un holda bosqichma-bosqich amalga oshirishga mas`ullikni ta`minlash; sanitariya-gigiyenik, ekologik ko`nikmalarni singdirish, diniy aqidaparastlik, giyohvandlikka qarshi tarbiyani amalga oshirish;

- oila, maktab va mahalla oldida o`z farzandlarining barcha xatti-harakatlari uchun javobgardir; sog`lig`ida va aqlida nuqsonlari bo`lgan farzandlarga hayot talablariga mos ravishda bilim va kasb-korlik berishdan iborat. Ota-onaning farzand oldidagi burchi, o`zbekona ta`bir bilan aytganda farzandga yaxshi nom qo`yish, yaxshi muallim qo`liga topshirib savodini chiqarish, ilimli, kasb-hunarli qilish, oilali va uyli-joyli qilishdan iboratdir.

Shu o`rinda 2012 yilga mamlakatimiz rahbari tashabbuslari “Mustahkam oila yili” deb nom berilishi va shu asosda azal-azaldan hayotimizning tayanchi va suyanchi bo`lib kelgan, jamiyatimizning hal qiluvchi bo`g`ini bo`lmish oila institutini yanada rivojlantirishga qaror qilishi hayot abadiyligini, har qaysi insonning baxtu saodati, kelajagi, orzu-intilishlarini mujassam etadigan oilani yanada mustahkamlash va farovonligini oshirish, bu borada olib borayotgan barcha ishlarimizni yangi bosqichga ko`tarishdek olijanob rejalarni amalga oshirish ko`zda tutilgani hammamizga yaxshi ayon. Ta`kidlash kerakki, “Mustahkam oila yili” jamiyatimizning ma`naviy negizlarini yanada rivojlantirish, azaliy qadriyatlarni asrab-avaylash, yuksak ma`naviy muhitni qaror toptirishda, milliy mentalitetimizga yot bo`lgan zararli ta`sirlarga qarshi turishda beqiyos kuch bo`lgan oilaning o`rni va nufuzini oshirishga qaratilgan oila, maktab va jamoatchilik hamkorligida tashkil etilgan ko`plab tadbirlarga, jumladan, turli ko`rik-tanlovlar, festivallar, ko`rgazma va ijodiy kechalarga boy bo`ldi. Ushbu xayrli ishlarning davomi sifatida 2013-yilning “Obod turmush yili” deb e`tirof etilishi ham bejizga emas. Oilalarning mustahkamligi va turmushning obodligi kelajak avlodning komil inson bo`lib yetishi uchun tayanch hisoblanadi. Ushbu yilda ham ishlab chiqilgan Davlat Dasturi asosida hamkorlik ishlarini tashkil etish zarur. Bunda oilaning ham, maktab va mahallaning ham tashabbuskorligi va o`zaro hamjihatligi talab etiladi.

Oila kabi mahalla ham jamiyatini shakllantirishning ajralmas qismidir. Vatanimiz tarixi guvohlik beradiki, o`zbek jamiyatida jamoa bo`lib yashashning sinalgan shakli mahalladir. „Mahalla“ so`zi arabcha „Mahallun“ so`zidan kelib chiqqan bo`lib, aholi yashaydigan joy, guzar, uy-joy mavzelari degan ma`noni anglatadi. Mahalla shaharlar ichidagi kichik hududiy birlik bo`lib, o`tmishdan meros bo`lib kelmoqda. Bejizga yurtboshimiz “Mahalla – yurt mustahkam bo`lsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi”, deb ta`kidlamagan. “Bir bolaga

yeti mahalla – ota – ona” degan naqldan kelib chiqib kelajak avlodni tarbiyalash va unga ta’lim berish jarayonini amalga oshirish borasida kichik Vatan bo’lmish mahallaning oldida quyidag vazifalar turadi: mahalla faollari tomonidan tarbiya muassasalari bilan birgalikda ta’lim-tarbiya jarayonida amalga oshirilishi kerak bo’lgan masalalarni muhokama qilishda qatnashishi va oqilona yechimlarini topishda faollik ko’rsatilishi; mahalla o’z hududidagi ijtimoiy va iqtisodiy yordamga muhtoj oilalarni aniqlab, ularni qo’llab-quvvatlab va farzandlarining bilim va tarbiya olishlariga bosh-qosh bo’lishi; ma’nan nosog’lom oilalarni mahalla yig’inlarida muhokama qilish, ularga nisbatan jamoatchilik choralarini ko’rish; mahalla hududidagi o’quv-tarbiya muassasalariga iqtisodiy va ijtimoiy yordam ko’rsatilishini qo’llab-quvvatlash; ota-onalar orqali bolalarni tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, milliy g’urur, vatanparvarlik, milliy odob, mafkuraviy onglik, baynalmilallik kabi xislatlarni singdirishni har tomonlama rag’batlantirish; yoshlarga diniy mashablar va sektalar, aqidaparastlikning mohiyatini to’g’ri anglab yetishga ota-onalar orqali ta’sir ko’rsatish, ulug’ ajdodlarimizning tarbiyaviy o’gitlarini singdirib borishga jamoatchilikni safarbar qilish; mahalla yig’inlarida milliy davlatchilik va milliy mafkura g’oyalari, respublikamizda iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida erishilgan turli tadbirlar tashkil qilish; “Ma’naviyat va ma’rifat”, “Sog’lom avlod uchun”, “Mahalla”, “Ekosan”, “Umid”, “Ulug’bek”, “Nuroni”, “Kamolot” jamg’armalari, xotin-qizlar qo’mitalari, turli jamiyatlar, birlashmalar va ijodiy uyushmalarni yosh avlod milliy istiqlol g’oyalari asosida tarbiyalash ishiga muammoli masalalarning yechimini topishga faol jalb qilish; mahalla hududidagi ishlab chiqarish korxonalari va tashkilotlarining imkoniyatlarini o’quv-tarbiya muassasalari moddiy negizini mustahkamlashga jalb qilish mahalla hududida o’quv-tarbiya muassasalari bilan birgalikda turli ko’rik-tanlovlar, sport musobaqalari, anjumanlar, bayram va bellashuvlar tashkil qilish; turli yo’nalishda iqtidorli bo’lgan o’quvchi bolalarni maktablar tavsiyasiga ko’ra ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan qo’llab-quvvatlash; - ilg’or pedagog xodimlar, tarbiyachilarga mahalla imkoniyatlaridan kelib chiqib,

har tomonlama yordam ko'rsatish; farzandlariga ta'lim va tarbiya berishda ijobiy natijalarga

erishayotgan, namunali oilalar hayot tajribasini ommalashtirib, mahalla hududida "Oila saboqlari" mashg'ulotlarini tashkil qilish;

- mahallada istiqomat qilayotgan xalq ustalari, san'atkorlar, ziyolilar va barcha ijod ahlining imkoniyatlaridan foydalanib, turli to'garak va "Usta-shogird" rusumida bilim va kasb berish faoliyatini tashkil qilish;

- mahalla hududidagi ishlab chiqarish korxonalari tomonidan mahallada istiqomat qilayotgan va moddiy qiynalgan yoshlar uchun ish joylari kvotasining ajratilishiga erishish; har bir yosh fuqaroda O'zbekistonda, uning tabiatiga muhabbat, tarixiga qiziqish, mahalla obodonchiligi, ahilligi uchun javobgarlik ruhinishakllantirish. Bugungi kunda mamlakatimizda ushbu ulkan va mas'uliyatli vazifalarni amalga oshirishda "Kichik biznes va tadbirkorlik"ning ahamiyati ortib bormoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotida, avvalambor, xalqimiz uchun munosib turmush sharoitini yaratish, aniq maqsadlar ko'zlangan istiqbolli rejalarni amalga oshirishda hal qiluvchi kuch va ta'sirga ega bo'lib bormoqda. Ishbilarmonlikning faol qo'llab-quvvatlanishi xalqimiz turmush farovonligini oshirish omili bo'lib qolmoqda. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar strategiyasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, oilaviy biznesni tashkil etish, yoshlarni tadbirkorlikka jalb etish, doimiy ish o'rinlari yaratish orqali oilalar turmush farovonligini oshirishga alohida e'tibor berilishi tijorat banklari kredit siyosatida o'z aksini topdi.

Mamlakatimizda oilaviy biznesni tashkil etish, oilalarning farovonligini oshirish boyicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida ajratilgan kreditlar miqdori 956 mlrd. soʻmdan, jumladan xotin-qizlarni tadbirkorlik sohasiga faol jalb etishga yonaltirilgan kreditlar hajmi 451 mlrd. soʻmdan ko'proqni tashkil etdi. Natijada minglab oilalar o'zlarining oilaviy bizneslarini yo'lga quyidilar, shaxsiy yordamchi xo'jaliklarini

tashkil etish imkoniga ega boʻldilar. Yuzlab bog'dorchilik vasabzavotchilik, parrandachilik, asalarichilik, baliqchilik bilan shug'ullanadigan yangi xususiy tadbirkorlik tuzilmalari faoliyat yurita boshladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotida, avvalambor, xalqimiz uchun munosib turmush sharoitini yaratish, aniq maqsadlar koʻzlangan istiqbolli rejalarni amalga oshirishda hal qiluvchi kuch va ta'sirga ega boʻlib bormoqda. Ishbilarmonlikning faol qoʻllab-quvvatlanishi xalqimiz turmush farovonligini oshirish omili boʻlib qolmoqda. Bolalarga ta'lim-tarbiya berishda maktab va pedagoglarning asosiy vazifalari O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning, "Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi" va respublika rahbariyatining dasturiy fikrlarimazmunidan kelib chiqqan bo'lishi kerak, ya'ni: maktabda bolaga biron bir kasb-korni egallashi uchun mustahkam poydevor yaratish; o'quvchi yoshlarning sport turlari bilan shug'ullanishlariga yordamberish, ularning bo'sh vaqtlarini, imkoniyatlarini hisobga olgan holda to'g'arak mashg'ulotlarini tashkil qilish; bolalarga ta'lim berishni ilg'or pedagogik texnologiyalar, zamonaviyo'quv uslubiy dasturlar asosida tashkil etish, o'quv-tarbiya jarayonlarini jahon andozalariga mos ravishda ta'minlash; o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini tahlilidan, iqtisodiy va ijtimoiy muhitdan kelib chiqib, ularni turli soha bo'yicha kasb asoslariga yo'naltirish va ta'limda tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy etish; yosh oilalar bilan ishlash, tibbiy-tarbiyaviy, huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy tushunchalar berish uchun maxsus tadbirlarni amalga oshirish; o'z hududidagi mahalla jamoalarining faoliyatini tarbiyaviy maqsad yo'lida muvofiqlashtirish; tarbiyasi og'ir, qarovsiz qolgan bolalarning ota-onalari bilan ishlash, oilalarga pedagogik yordam berish; bola tarbiyasi yaxshi yo'lga qo'yilgan oilalarni tegishli idoralar hamkorligida o'rganib, tajribalarini ommalashtirish; o'qishni va ishlashni xohlamaydigan, bezorilik yo'lga kirib ketgan o'smirlarni hisobga olib, ularga tegishli tashkilotlar bilan birgalikda

zarur choralar ko`rib, ota-onalar yig`ilishlarida muhokama qilish; tarbiya sub'yektlari bo`lmish huquqiy, tibbiy, ijodiy uyushmalar, yoshlar, tabiatni muhofaza qilish va "Ekosan", "Qizil yarim oy", barcha jamg`arma va jamoatchilik markazlari, ommaviy axborot vositalari, inson huquqlari, ommaviy axborot vositalari, inson huquqlari, nodavlat tashkilotlari, ishlab chiqarish korxonalari, mahalliy boshqaruv idoralarining bola tarbiyasiga bo`lgan mas'uliyat va javobgarligini muvofiqlashtirish; turar joyda va mahallada olib borilayotgan tarbiyaviy, ma'naviy, ma'rifiy, madaniy-ommaviy va sport tadbirlari markazi maktab bo`lishiga erishish o`quvchi-yoshlar, ota-onalar, jamoatchilik bilan huquqiy tarbiyani amalga oshirish, tarbiya jarayonining barcha ishtirokchilari orasida milliy mafkurani targ`ib qilish, aqidaparastlik va milliy taraqqiyotimizga zararli g`oyalarning kirib kelishiga qarshi murosasiz kurashni tashkil qilish; maktab negizida pedagogik, huquqiy, psixologik, ma'naviy va ma'rifiy bilimlar beruvchi "Ota-onalar universitetlari" faoliyatini tashkil qilish.

2. O`quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligini amalga oshirish tamoyillari va bosqichlari, mexanizmi va uslublari

Yosh avlodni yaxshi xulqli, davlat ramzlariga sadoqatli qilib tarbiyalashda ularning yosh jihatlariga, xarakteriga alohida ahamiyat berish lozim, chunki bularsiz tarbiyada ko`zlangan maqsadga erishib bo`lmaydi. Oila, mahalla, maktab hamkorligida quyidagi tamoyillarga va bosqichlarga amal qilinganda samaradorlik yanada yuqori bo`ladi: ta'lim va tarbiya sohasida hamkorlik jarayoni ishtirokchilari harakatlarining ish birligi; tarbiyalanuvchiga hurmat va talabning uyg`unligi; hamkorlik jarayoni sub'yektlarini teng huquqliligi va yuksak mas'uliyati; faoliyat jarayonida millat va davlat manfaatlari ustuvorligi; Birinchi bosqich. Yosh oilalar bilan ishlash. Yosh ota-onalarga farzand va uning tarbiyasi haqida falsafiy, tibbiy tushunchalarni berish va bu masalalarga tibbiyot xodimlari, obro`li xotin-qizlarni, ota-onalarni jalb

qilib, “Yosh onalar va otalar maktablari” faoliyatini yoʻlga qoʻyish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi bosqich. Farzandning maktabgacha boʻlgan davridagi jismoniy, aqliy va maʼnaviy rivojlanishini taʼminlash borasida ularga rasm chizish, voqealarni bayon qilish, oʻziga oʻzi xizmat qilish, harf tanish, qoʻshiq aytish va raqs tushish, turli oʻyinlarda ongli qatnashish tushunchalarini singdirish va mustaqil ravishda bilim olish koʻnikmalarini shakllantirish yuzasidan maktabga tayyorlash guruhleri, “yakshanbalik maktablar” ishini tashkil qilish.

Uchinchi bosqich. Kichik yoshdagi (6-11 yosh) maktab davrida bolalarning jismoniy, maʼnaviy va ijtimoiy shakllanishini taʼminlash, uning ilk iqtidori, qiziqishi va aqliy imkoniyatlarini aniqlash, oʻz xatti-harakatlariga javobgarlik hissini tarbiyalash, boʻsh vaqtini toʻgʻri tashkil qilishni oʻrgatish, atrof-muhitga ongli munosabatda boʻlish, doʻstlik, baynalminallik, vatanparvarlik xislatlarini shakllantirish.

Toʻrtinchi bosqich. Oʻsmirlarni (11-16 yosh) qiziqishini, bilimga chanqoqlik va aql-zakovatini hisobga olgan holda ijtimoiy faoliyatga tortish, jismonan baquvvat boʻlishini taʼminlash, maishiy mehnat faoliyati orqali turli kasblarga yoʻnaltirish, oʻsmirlar guruhleri va jamoatchilik orasida oʻz oʻrnini topa olishiga koʻmaklashish, oʻz xatti-harakatlari uchun jamiyat, qonun va ota-onalari oldida javobgarlik tuygʻusini shakllantirish, ijtimoiy faolligi va mustaqil dunyoqarashini yuzaga keltirish.

Beshinchi bosqich. Yoshlarni (16 va undan yuqori) dunyo andozalariga mos bilim olishlari, kasb tanlashlari, mustaqil hayotga tayyorgarliklarini taʼminlash. Ularning imkoniyatlari darajasida taʼlim olishlariga, tanlagan kasblari boʻyicha ish bilan taʼminlanishlariga, iqtisodiy mustaqil boʻlishlariga shart-sharoit yaratish, Vatan, Davlat va jamiyat oldidagi fuqaroli burchlarini ado etishga javobgarlik hissini toʻla shakllantirish, mustaqil oila qurishga tayyorlash. Kadrlar tayyorlash Milliy

Dasturi”ning 4-bo`lim 6-bandida “Muassistashkilotlarning , mahalliy hokimiyat organlarining, savdo- sanoat doiralarining jamoat tashkilotlarining, fondlarning va homiylarning vakillarini o`z ichiga oluvchi vasiylik va kuzatuv kengashlari tuzish orqali ta`lim muassasalarining samarali, jamoat boshqaruvi tizimi joriy etiladi”, deb belgilab qo`yilgan. O`zaro hamkorlik ishlarini boshqarish uchun joylarda o`z tarkibiga mahallar faollari, obro`li ota-onalardan, o`quv-tarbiya muassasalarining tajribali xodimlaridan iborat muvofiqlashtiruvchi jamoatchilik kengashlari tuzilishi kerak. Jamoatchilik kengashi o`z zimmasiga olgan vazifalardan kelib chiqib, o`z tarkibida turli yo`nalishlarda faoliyat ko`rsatadigan kichik tashabbuskor guruhlarini tuzishi mumkin. Jamoatchilik kengashi ma`lum bir muddatga mo`ljallangan ish dasturini tuzish va uni mahalla yig`inida tasdiqlab olib, amalga oshirishi zarur bo`ladi. Qayd etyilgan tadbirlar davra suhbatlaridan, biron bir mavzuga yoki muammoga qaratilgan kengash va majlislardan, anjumanlardan, oqsoqollar kengashlaridan , mahalla yig`inlaridan, mahalla ahlini birlashtiruvchi, ularni sog`lom turmush tarziga yetaklovchi ko`rik-tanlovlar, musobaqala, bellashuvlar, uchrashuvlar va turli sanalarga bag`ishlangan anjuman va tantanalardan iborat bo`lishi mumkin. Joriy qilingan jamoatchilik kengashi o`z faoliyati to`g`risida mahalla ahliga har chorakda bir marotaba hisobot beradi. Zarurat tug`ilganda o`quv-tarbiya muassasalari, mahalla faollari, mahalla hududida joylashgan tashkilot, korxona va idoralarni ta`lim-tarbiya yuzasidan olib borayotgan ishlari to`g`risida hisobotlarini tinglab, ularga amaliy va nazariy yordam berishi ish samarasiga va uning izchilligiga ijobiy ta`sir ko`rsatadi. Hamkorlik kenagshi mahalla hududida istiqomat qilayotgan o`z farzandalari tarbiyasiga befarq ota-onalarga nisbatan davlat boshqaruv idoralari, huquqni himoya qilish tashkilotlari bilan hamkorlikda turli ma`muriy choralarni qo`llashi mumkin. Hamkorlik kenagshi mahalla hududida o`zbek milliy tarbiya an`analarini tiklash, turli madaniy tadbirlar o`tkazish, bolalar va kattalarning bo`sh vaqtlarini tashkil etish borasida maktablar, o`yingohlar, madaniyat muassasalari, sport inshootlari, o`smirlar

klublari, maktabgacha tarbiya va maktabdan tashqari muassasalar ishini muvofiqlashtiradi. Hamkorlik kenagshi o'tkazilgan tadbirlarni tahlil qiladi, bu borada uslubiy maslahatlar tayyorlaydi va bu tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida yoritadi. Hamkorlik kenagshi yosh avlodni tarbiyalashda mahalla, maktab va oila hamkorligi tasarrufiga kirgan masala va muammolarini mahalla hududidagi o'quv-tarbiya muassasalari, tashkilotlar va idoralari ishi rejalashtirilishi va amaliyot dasturlariga kiritilishida ularning bahamjihatlilikini ta'minlaydi. Ta'lim-tarbiya sohasiga e'tiborni kuchaytirish, bu borada hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qonun va hujjatlarni, ma'muriy ko'rsatmalarni samarali bajarish uchun oila, mahalla, maktab hamkorligi faoliyati o'ziga xos pedagogik tizim uslub va shakllarga ega bo'lishi zarur. O'tkazilgan tadbirlar har tomonlama puxta, shuning bilan qatnashchilarning yoshlariga mos pedagogik va psixologik mujassamlashgan, mantiqan teran, qiziqarli va ko'rgazmali, ta'sirchan, ommabop, amaliy jihatdan qisqa va lo'nda, estetik jihatdan keng ko'lamli bo'lishi kerak. Hamkorlikda olib borilayotgan ishlar mahalla hududidagi barcha yoshdagi va toifadagi fuqarolarni qamrab olishi va ularning qiziqish va intilishlariga mos bo'lishi lozim. Hamkorlik tadbirlarining mavzulari "Sog'lom avlod uchun", "Ota-onangga rahmat", "Odobingga balli", "Sog' tanda – sog'lom aql", "Mehr chashmasi", "Qizlar ibosi", "Bir yigitga qirqhunar oz", "O'g'lim - posbonim", "Hayot-ustoz, xalq muallim", "O'zbekiston – Vatanim manim!", "Milliy burch va mas'uliyat", "Oila saboqlari", "Oila etikasi", "Oila tinch – mahalla tinch", "Mustaqil hayot bo'sag'asida", "Askarlik – yigitlik maktabi", "Oila baxti – Vatan baxti", "Sportchi oila", "Oilamiz ohanglari", "Vatan ostonadan boshlanadi", "Bizkimmiz" kabi tadbirlardan iborat bo'lishi mumkin.

Xalq amaliy san'ati, hunarmandchiligi, urf-odatlari, madaniyati va tarixini o'rganish, o'quvchi yoshlarda vatanparvarlik g'ururini hisobga olgan holda, bu borada tashkil qilinadigan tadbirlar kattalar va yoshlar xotirasida doimo yorqin hissiyotlar qoldirishini unutmaslik tashkiliy ishlar samarasini oshiradi.

Mahalla hududida o'tkaziladigan sport va turli madaniy tadbirlar yoshlarning intilish va imkoniyatlarini kattalar tomonidan chuqur o'rganish imoniyatini beradi.

Yuqoridagi tarbiyaviy, tashkiliy, uslubiy ishlarni hayotga tatbiq etishda har bir fuqaro, oila, mahalla va maktab o'zining shart-sharoiti, atrof-muhitini tahlil qilib: -o'quvchi-o'qituvchi-ota-ona"; "maktab-oila-mahalla-jamoatchilik"; "oila-mahalla-bog'cha-maktab yo'nalishlarida amaliy – tarbiyaviy ishlarni hayotga tatbiq etadi va shu kun talabi darajasida targ'ibot qiladi. Shu tariqa yoshlarni tarbiyalashda mutafakkir Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yosaodat – yo falokat masalasidir" iborasi oila, mahalla va maktabningish tamoyiliga aylanishiga erishiladi.

3.4-sinf o'quvchilarida oila, maktab, jamoatchilik hamkorligini shakllantirishning metodik mazmuni.

Maktab, oila va mahallaning milliy tarbiyaviy hamkorlik yo'nalishlari mazmuni (ommaviy madaniyatga qarshi kurashish tadbiri) Bugungi kunda bolalar tarbiyasiga jamoatchilik keng jalb etilmoqda. Ayniqsa, mahallalar, "Kamolot" YoIH, "Kamalak", "Kelajak ovozi" va boshqa turli - tuman jamoat tashkilotlari maktabga hamda oilaga bolalar tarbiyasida juda katta yordam ko'rsatmoqdalar. Jamoatchilikni o'quvchilar tarbiyasiga jalb etishda sinfdan va maktabdan tashqari ishlar tashkilotchisining roli kattadir. Tashkilotchi maktabning o'ziga qarashli tumanida bolalar bilan tarbiyaviy ish olib borishini tashkil etuvchi markaz bo'lib qolmog'i uchun chora-tadbirlar ko'radi, shu maqsadda u o'quvchilar otionalari ishlaydigan korxona va muassasalar jamoat tashkilotlari bilan mustahkam aloqa o'rnatadi, maktabga homiylik qilayotgan tashkilotlar bilan bolalarning yashash joylarida ular bilan tarbiyaviy ishlar olib borish to'g'risida suhabtlashadi. Jamoatchilikning bolalar tarbiyasi borasida olib boradigan eng muhim yo'nalishlari: o'qishdan tashqari vaqtlarda o'quvchilar xulq-atvorini kuzatib borish, ularni xilma-xil ijtimoiy foydali ish-faoliyatiga jalb etish, o'quvchilarning uy vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishlarida ularga alohida-alohida yordam

uyushtirish, oilalarga o'quvchilarning pedagogik jihatdan qarovsizligiga olib keladigan sabablarni bartaraf qilishda yordam ko'rsatish, tarbiyasi qiyin o'smisrlarni tarbiyalash va qayta tarbiyalashda yordam berish, bolalar bilan ularning yashash joylarida sport va madaniy-ommaviy ishlar olib borishdan iboratdir. Sinf rahbari jamoat tashkilotlari bilan mustahkam aloqada bo'lib, ularga mumkin qadar ko'proq yordam berishlari va qo'llab-quvvatlashlari uchun ularga murojaat qilib turmog'i zarur. Eng avvalo ota-onalar qo'mitasi bilan, mahalla faollari bilan doimiy aloqa o'rnatish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tashkilotlar bolalar tarbiyasida nihoyatda katta yordam ko'rsatadilar. Jamoat tashkilotlari ayniqsa maktabdan tashqari kattalar qarovida qolmaydigan o'quvchilarning bo'sh vaqtlaridan to'g'ri foydalanishlariga, ularning qarovsizligini bartaraf etishga juda katta yordam ko'rsatishlari mumkin. Sinf rahbari jamoatchilikning ko'magi bilan sayohatlar va boshqa tadbirlar tashkil etishi va o'tkazishi, mahalla fuqarolar yig'ini binosi va boshqa tashkilotlar binosida uy vazifasini tayyorlash xonalarini jihozlashi va boshqa ishlarni amalga oshirishi mumkin. Har bir umumiy o'rta ta'lim muassasasida ota-onalar qo'mitasi bo'lib, u "Maktab nizomi" bo'yicha tashkil etiladi. Ota-onalar qo'mitasi ishining vazifalari va mazmuni, uning huquqlari, hisoboti va ish yuritishi ham "Ota-onalar qo'mitasi haqidagi nizom"da aks ettirilgan. Bu qo'mita ota-onalarning umumiy majlisida bir yil muddatga saylanadi. Uning tarkibiga har bir guruhdan 1-2 vakil kiradi, ular orasidan rais vakotib saylanadi. Qo'mitani saylashda saylanayotgan ota-onaning ma'naviy qiyofasi, bo'shvaqti bor-yo'qligi, ishbilarmonligi, obro'si, bola tarbiyasiga qiziqishi va hokazolarni hisobga olish kerak. Umumiy o'rta ta'lim muassasasi rahbari va pedagogik jamoa ota-onalar qo'mitasiga faol, harakatchan, tarbiya masalalaridan uzoq bo'lmagan kishilar saylanishi tarafdoridir. Sinf rahbarlari u yoki bu oila qanday, ota – onalar qo'mitasiga a'zo bo'lgandan so'ng maktabga qanday yordam berishi mumkin, ular jamoat tarbiyasi hayoti bilan qiziqishadimi, maktabda bo'lishi kerakligi haqidagi, mashg'ulotlarni, tartibni kuzatish, sayr qilishda ishtirok etish haqidagi taklifga labbay deb javob berishadimi? Degan savollarga javob berishlari kerak. Ota-onalar qo'mitasini unda

ishlashni xohlovchi ota-onalardan ham saylash mumkin. Bunday ota-onalar odatda, qiziqib va samarali ishlaydilar. Ota-onalar faoliyati samarali bo'lishi uchun uning a'zolarining pedagogik mafaniyatini oshirish doimo diqqat-e'tiborda bo'lishi zarur. Shu maqsadda rejali o'qishning turli xil shakllari o'tkaziladi. Ota-onalar qo'mitasi ota-onalarning umumiy majlisiga hisob beradi, unga avval qabul qilingan qarorlarning bajarilishi haqida hisobot beradi. Ota-onalar qo'mitasi ishida faol qatnashmaydigan a'zolari, ota-onalar qo'mitasining taklifi bilan qo'mitani qayta saylash muddatlari kelgunga qadar chaqirib olinishlari mumkin. Uning o'rniga boshqalar saylanadi. Ota-onalar qo'mitasi a'zolarining maktab bilan aloqasi pedagoglardan o'ziga va ishiga nisbatan yanada talabchan bo'lishni talab qiladi. Sinf rahbarlari mahalla faollari va ota-onalar qo'mitasi bilan mustahkam aloqada bo'lib, ularning faoliyatlarini faollashtirishga harakat qilishlari zarur. Ular ota-onalar qo'mitasiga bolalar o'rtasida yashash joylarida ommaviy tarbiyaviy ishlar o'tkazishda, badiiy havaskorlik to'garaklari tashkil etishda, kitobxonlar konferensiyalari, suhbatlar, ekskursiyalar o'tkazishda yordam beradilar. Ular bolalarning faol ishtirokida hovli maydonlari, sport maydonchalari qilishlari mumkin. Bolalarning yashash joylari bo'yicha jamoatchilik sportning turli xillaridan hovli yoki ko'cha guruhlarini musobaqalarini o'tkazsa bo'ladi. Ota-onalar qo'mitasi tashabbusi bilan mahallar qoshida bolalar uchun foto to'garaklar, "Mohir qo'llar", "Yosh rassomlar", "Matematik olimlar", "Bilag'onlar", "Hunarmand ustalar" kabi to'garaklar va sport inshootlarini tashkil etish mumkin. Bundan tashqari bolalar tarbiyasiga jamoatchilikni jalb etishda turli tadbirlar, kechalar va seminar mashg'ulotlarini ham uyushtirish maqsadga muvofiqsir. Bunda sinf rahbari boshchiligida o'quvchilar bilan tadbir yoki kechalar uyushtirib jamoatchilik tashkilotlarini taklif etishi yoki ulardan yordam so'rashi mumkin. Sinf rahbari bolalar tarbiyasiga jamoatchilikni jalb etar ekan, o'z tarbiyaviy doirasini ko'p darajada kengaytiradi. U murakkab va mas'uliyatli ishda – bolalarni tarbiyalash ishida ko'pgina yordamchilar topadi. Mamlakatimiz aholisining katta qismini yoshlar tashkil etadi. Shu bois "ommaviy madaniyat" tahdidiga qarshi tura olish tobora dolzarbahamiyat kasb etayotir. Prezidentimiz Islom Karimov "Yuksak

ma'naviyat– yengilmas kuch” asarida bu masalaga to‘xtalib, xloqsizliknimadaniyat deb bilish va aksincha, asl ma'naviy qadriyatlarnimensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog‘liq holatlar bugungitaraqkiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga kattaxavf solmoqda , deya alohida ta’kidlaydi.Bugun turli yo‘llar bilan, har xil “ezgu” niqoblar ostida “ommaviymadaniyat” mamlakatimizga ham tahdid solayotgani sir emas. Ayniqsa,jangari filmlar, yoshlarni soatlab o‘tirishga “majbur” qilayotgankompyuter o‘yinlari beto‘xtov yovuzlikni targ‘ib etsa, bolasining otasi kimligini bilmasdan boshi qotib DNK tekshiruvini o‘tkazmoqchibo‘lgan xonimlar haqidagi seriallar, internet olamida ayol va erkaklarga lazzatlanish haqida berilayotgan “eng yaxshi maslahatlar” fahsh hamda buzuqlik ko‘chasi sari chorlaydi. Buning ustiga estrada san’atiga kirib kelayotgan ayrim yo‘nalishlar va qo‘shiqlar, kliplar, yaratilayotgan kinofilmlar, reklama roliklaridatarg‘ib etilayotgan turlicha kiyinish va so‘zlashuv “madaniyati”, umuman hayot tarzimizga to‘g‘ri kelmaydigan holatlarga yo‘l qo‘yilayotgani achinarlidir.“Ommaviy madaniyat”ning eng xavfli tomoni – u to‘satdan kirib kelmaydi. Avvalo, juda kichik detallar, arziyas veqealar orqali odamlarni o‘ziga o‘rgatadi, ko‘niktiradi. Ana shunda 3-4 yoshdagi farzandimiz repper bo‘lib kuylasa ham, o‘g‘limiz qulog‘iga zirak taqib, qizimiz yirtiq shimni kiyganida ham “zamona zayli” deya beparvo bo‘lamiz. Qolaversa, farzandimizning zamonaviylikidan quvonamiz. Mintaqamizdagi davlatlardan birida qandaydir nodavlat tashkilotining granti, “beg‘araz” ko‘magi asosida maktab o‘quvchilari uchun ko‘p ming nusxada darslik chop etildi. Bir qarashda bu xayrli tadbir ezgulikni, yoshlarning bilim olishini ko‘zlab amalga oshirilgandek. Lekin darslikning ichiga kiritilgan ayrim sahifalar, turli xulosayu tavsiyalar, erkinlik va demokratiya to‘g‘risidagi yondashuvlar murg‘ak yoshlar ongiga buzg‘unchi g‘oyalarni pinhona kiritishga qaratilgani kitob tarqalib bo‘lgandan keyingina aniqlandi. “Ommaviy madaniyat”ni targ‘ib qilayotgan g‘arazli kuchlarga aslida hech qanday madaniyat va inson ma'naviyati, axloqiy qoidayu qadriyatlarning aslo keragi yo‘q. Ularning strategik reja va siyosiy maqsadlariga erishish, ayrim mamlakatlarning yer osti, yer usti boyliklariga ega bo‘lish, o‘z izmiga solish uchun

bu bir vosita, xolos. Bir soʻz bilan aytganda hamma narsaga erkinlik nuqtai nazaridan qaraydigan “ommaviy madaniyat”ning asosiy maqsadi – odamning irodasini susaytirish, oʻzining hayotiga, atrofidagi odamlarga qarshi qoʻyish va oxir-oqibatda erkinligidan judo qilishdir. Prezidentimiz Islom Karimov shu yil 9 may – Xotira va qadrlash kunida jurnalistlar bilan suhbatda qoʻshni Afgʻonistondagi vaziyat haqida fikr bildirar ekan, Afgʻoniston xalqini, uning tarixini, madaniyatini, diniy-milliy qadriyatlarini toptash emas, aksincha, hurmat qilish yoʻli bilangina turli millat va elatlarni bir-biriga yaqinlashtirish, u yerda tinchlik va barqarorlik oʻrnatish mumkinligini alohida taʼkidladi. Ushbu fikrning oʻziyoq xalqning maʼnaviyatini mensimaslik, “ommaviy madaniyat”ni keng yoyish qanchalik ayanchli oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkinligini isbotlaydi. Mamlakatimizda istiqbolning dastlabki yillaridanoq umumbashariy va demokratik qadriyatlarni chuqur oʻzlashtirgan holda barpo etilayotgan huquqiy va demokratik jamiyat qurish yoʻli bugun oʻzini toʻla oqlamoqda. Inson huquq va erkinliklari, fikrlar rang-barangligi, har bir xalqning anʼana va qadriyatlariga ehtirom koʻrsatish jamiyatimizning eng muhim tamoyillari etib belgilangan. Bunga munosib boʻlish har birimizning fuqarolik burchimizdir. Buyuk ajdodlarimiz qoldirgan boy madaniy va maʼnaviy merosni, mardlik va jasoratni allaqanday “ommaviy madaniyat”ga almashtirishga esa hech kimning haqqi yoʻq. Bugun eng serdaromad sohalardan biri sifatida internet eʼtirof etilmoqda, desak yanglishmaymiz. Hozirgi kunda taraqqiyotning yuqori texnologiyalari hayotimizga dadil qadamlar bilan irib kelmoqda. Toʻgʻriroq qilibaytganda, kirib kelishga ulgurdi ham. Shunday yutuqlardan biri global internet tarmogʻidir. Siz internetga kirsangiz, qaysiki axborotni olmoqchi boʻlsangiz mos manzilni terasiz. Manzilki, tayin faqat va faqat 3ta bir xil harf: WWW bilan boshlanadi. Aslida WWW inglizcha qisqartma soʻz boʻlib, “Butun dunyo oʻrgimchak toʻri” maʼnosini beradi. Haqli savol tugʻiladi: Nima uchun aynan oʻrgimchak toʻri? Internetning oʻrgimchakka va uning toʻriga nima aloqasi bor? Balki, ular jarangli eshitilsin deb, uni maʼjoriy nom bilan atagandirlar. Balki, nomlashdan maqsad boshqadir. Oʻrgimchakning oʻz toʻrini qaysi maqsadda ishlatishi ayon ekan, har qanday kishining ongida nom tasodifan

berilmagan degan fikr shakllanishi aniq. Chunki, u o'z nomini ma'lum miqdorda oqlamoqda.

Aks holda o'rgimchak hali qanoti qotmagan hasharotlarni o'z domiga qanday tortgani singari, internet hali ongi to'la shakllanmagan yoshlarni o'zining noto'g'ri, asossiz va yolg'on axborotlari bilan zaharlash darajasigacha bormas edi. Lekin, bu bilan biz internet to'la "o'rgimchak to'ri" vazifasini bajaryapti deyishdan yiroqmiz, chunki bu to'r ichida erkin harakatlanish imkoni mavjudligi bizga tasalli beradi. Sabab shuki, internetni ijobiy maqsadga ham yo'naltirsa bo'ladi va "o'rgimchak to'ri"ning haqiqiy egalari buni chegaralay olmaydi. Biz o'z xalqimiz mentaliteti, madaniyati va mafkurasidan kelib chiqqan holda ezgu mazmundagi veb-sahifalarni ko'paytirib internetga joylashti-rishimiz mumkin. Lekin, shu bilan birga, bunday mafkuraviy xurujdan butunlay ozodmiz, bizni boshqara olishmaydi, deyishdan chekinishimiz kerak. Shuni unutmaslik kerakki, har qalay o'rgimchak to'rining o'z o'rgimchagi bo'lgani singari bu to'rning ham o'z "o'rgimchak"lari bor. Men ularni shunday atamadim: ular o'zlariga o'zlari shunday nomni berib qo'yganlari kundek ravshanku. Hayron bo'lishingiz, tabiiyki, muallif taraqqiyotga qarshi, internetni qoralayapti deyishingiz mumkin. Aslo, yo'q, men internetni qoralamadim, men WWW haqida gapirdim. Internet bilan WWW orasida farq bor. Biz internetda ishlovchi oddiy insonlardan farq qilishimiz, devorning orqasini ham ko'ra bilishimiz zarur. Xususan, chegarasiz maydon va poyonsiz sarhadga ega virtual olamning eng jozibador ko'rinishlaridan biri bo'lmish ijtimoiy tarmoqlar hali 30 yoshning nari-berisida bo'lgan Mark Tsukerberg, Albert Popkov, Pavel Durov, Djek Dorsi kabi kishilarni allaqachon dunyo milliarderlari ro'yxatiga tirkab qo'ydi. Boz ustiga ularni bugun G'arb matbuoti «yangi dunyo yaratuvchilari» sifatida olqishlamoqda. Ammo facebook, twitter, odnoklasniki, vkontakte kabi ijtimoiy tarmoqlarning vujudga kelishi va supertezlikda juda katta auditoriyani qamrab olayotganini milliy mentalitetlarning kushandasi sifatida e'tirof etayotganlar ham yo'q emas. Buni statistik faktlar ham tasdiqlaydi. Facebook bugun dunyodagi eng yirik ijtimoiy tarmoq hisoblanadi. Unga 2004 yili o'sha vaqtda Garvard universitetining talabasi bo'lgan Mark Tsukerberg asos solgan.

Hozirda facebookning auditoriyasi 901 million kishi (130 ming o'zbekistonlik)ni qamrab olgan. Shundan 500 million kishi saytga telefon orqali tashrif buyuradi. Har kuni foydalanuvchilar 3 milliarddan ortiq sharhlar qoldirishadi, tarmoqqa 300 millionta surat joylashtirishadi. facebookda hozirga qadar 125 milliard do'stlik aloqasi o'rnatilgan. Kompaniyaning daromadi joriy yilning birinchi choragida bir milliard dollardan oshib ketdi. Reklamadan esa qariyb 900 million dollar foyda olindi. O'z mushtariylariga «Hozir nima qilayapsiz?» degan savolga javob berish imkoniyatini yaratish maqsadida ochilgan twitter esa internet tarmog'idagi eng mashhur mikroblog servis bo'lib, u o'z mushtariylariga 140 harfgacha bo'lgan qisqa xabarlarni ma'lum qilish imkonini beradi. twitter — ingliz tilidan tarjima qilinganda chug'urlamoq, shivirlamoq, valjiramoq ma'nolarini beradi. Unga 2006 yil 15 iyul kuni Djek Dorsi, Evan Uilyams, Biz Stounlar tomonidan asos solingan. Hozirda mazkur mikroblogdan 500 million kishi ro'yxatdan o'tgan. Hatto ko'pgina davlat rahbarlarining twitterda o'z akkaunti (shaxsiy hisob, tashrif buyuruvchilarning identifikatsiya nomeri) bor hamda ular o'z o'quvchilarini rag'batlantirib turishadi. Masalan, shu yilning may oyida Venesuela prezidenti Ugo Chaves o'zining twitterdagi 3 millioninchi follover (o'quvchisi)ga uy sovg'a qildi. Ikki millioninchi folloveriga esa shaxsan o'zi telefon qilib, kompyuter sovg'a qilgandi. Bir so'z bilan aytganda twitterda dunyoning mashhur kishilari, san'at va sport yulduzlarini uchratish, do'stlashish mumkin. Agar twitterdagi akkaunt mashhur bo'lsa, pul ishlab olish imkoniyati ham mavjud. «Vkontakte» kompyuter texnologiyalari ustasi Pavel Durov tomonidan 2006 yil 10 oktyabr kuni yaratilgan. Saytga kuniga 35 million kishi tashrif buyurmoqda. Qisqa muddatda 100 ming a'zoni yig'ish bo'yicha rekord o'rnatgan «odnoklasniki» ijtimoiy tarmog'i esa o'z faoliyatini 2006 yil 26 martdan boshlagan. Hozirda rus, ukrain, gruzin, arman, moldav, o'zbek tillarida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Loyiha muallifi kelib chiqishi rus millatiga mansub, ayni paytda Londonda istiqomat qiluvchi Albert Popkov hisoblanadi. Sayt shiddat bilan rivojlanayotgan tarmoqlardan biri bo'lib, u ayni paytda 14 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan 135 millionlik auditoriyaga ega. Shundan ikki million profil (foydalanuvchining shaxsiy sahifasi) mamlakatimiz fuqarolari

tomonidan ochilgan. Bir kunda unga 30 million kishi tashrif buyuradi. Qizig'i shundaki, mazkur ijtimoiy tarmoq yaratilganida, muallif unga bor-yo'g'i reklama joylashtirishni maqsad qilgandi. Biroq qisqa fursat ichida Albert juda katta daromad manbaiga ega bo'lganini anglab yetdi. Sayt tashrif buyuruvchilarga alohida va umumiy muloqot qilish, turli o'yinlar o'ynash, sharhlar qoldirish, guruhlar ochish, do'stlar orttirish, suratlar, videoroliklar yuklash uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi. Bir so'z bilan aytganda, juda katta muloqot maydonidir. Kimlar uchundir u eski do'stlar va qadrdonlarni, yillar ortidagi tanish-bilishlar, yo'qotilgan qarindoshlar, birinchi muhabbatni topish imkonini bersa, kimlar uchundir mo'maygina daromadga ega bo'lish manbai, virtual e'lonlar makonidir. Ayni paytda sayyoramizda istiqomat qilayotgan bir yarim milliard yoshlar ijtimoiy tarmoqlarning asiri hisoblandi. Albatta, ijtimoiy tarmoqlarning foydali tomonlarini inkor etib bo'lmaydi. Biroq yovuz niyatli kishilar ham bunday beminnat yordamchilardan foydalanmaydi deb o'ylash, kulguli, albatta. Masalan, Afg'onistondagi Tolibonlar, Al Qoida, Somalidagi «Al-Shabab» terrorga ixtisoslashgan ekstremistik tashkilotlar ijtimoiy tarmoqlarda o'z profili va minglab «do'st»-lariga ega. Xususan, ular o'zlarining jihodiy g'oyalarini, va'zlarini targ'ib va tashviq qilishda, inqiloblarga chorlashda hadsiz imkoniyatlarga ega bo'lmoqda. Ayni paytda ularni qo'llab-quvvatlayotganlar ham, e'tirozlarni, nafratlarini izhor etayotganlar ham kam emas. Hatto muqaddas islom dini yuziga loy chaplashni niyat qilgan qora kuchlar ijtimoiy tarmoqlarga payg'ambarlarning karikaturalarini joylashtirib, o'zlarning manfurona basharalarini namoyish qilmoqdalar. Bu o'z navbatida, millatlararo, dinlararo nizolarga sabab bo'layotgani, achinarli. Bundan ham yomoni, ijtimoiy tarmoqlar Yaqin Sharq va Osiyoda turli namoyishlar uyushtirishning qulay vositasiga aylanganini bir necha bor amalda isbot etdi. Hozirda dunyoning eng qaynoq nuqtasi bo'lib turgan Suriyadakechayotgan xunrezliklarda ijtimoiy tarmoqlar ham faol rol o'ynamoqda. Masalan, amaldagi tuzumga qarshi kurashishga chaqiriqlar, buning uchun xayriya yig'ini tashkil qilishga da'vatlar (Otning o'limi — itning bayrami, deb shuni ayt-salar kerak-da) shular jumlasidan. «Arab bahori» deb nom olgan va hali beri poyoni

ko'rinmayotgan bu harakatlar Tunis, Liviya, Misr, endi esa Suriyada qator xudkushliklarga sabab bo'lmoqda. Taraqqiyotni yillar ortiga surib yuborayapti... Statistik ma'lumotlarga qaraganda, Rossiyada har bir foydalanuvchi bir kunda o'zining 10,4 soat, Angliyada 5,3, Turkiyada 7,8, yurtimizda esa taxminan 6 soat vaqtini sarflayapti. Afsuski, mazkur gapning kesimi yoniga «behuda» so'zini qo'shib qo'yish, yoki uni «isrof qilgan» jumlasiga almashtirish ham mumkin. Taraqqiyot odimlari bugun internet qiyofasida dunyoning eng chekka mamlakatlariga ham bo'yalayapti. Bugun bo'lajak kelin yoki kuyovlar haqidagi dastlabki ma'lumotlar ham ijtimoiy tarmoqlardan qidirilayotgani ularning nechog'li ijtimoiy hayotimizga ta'sir ko'rsatayotganini anglatadi. Taassufki, mamlakatimizda eng mashhur ijtimoiy tarmoq hisoblanmish «Odnoklassniki.ru» saytida yuzlab, minglab axloqqa zid profil yoki guruhlariga ko'zingiz tushishi mumkin. Afsuski, fohishabozlik, bachchavozlik, qonxo'rlikka undaydigan e'lonlar, mavjud ijtimoiy tuzumlarga qarshi qaratilgan chaqiriqlarni hech bir to'siqsiz o'qiyotgan, tomosha qilayotgan yoshlar ham yo'q emas. Achinarlisi, ularni nazorat qilishning iloji yo'q. Yaqinda Chexiya poytaxti Praga shahridagi mehmonxonalarning birida o'zlarini xalqning daholari deb sanaydigan va tuzilmalariga demokratiya, xalq, tayanch, adolat, tiklanish kabi dabdabali yorliqlarni yopishtirib olgan bir guruh tovlamachilarning yig'ilishi bo'lib o'tdi. Maqsadlari hokimiyat, yurtimizdagi taraqqiyotni izdan chiqarish bo'lgan bu noshud kimsalar ham o'zlarining faoliyat ko'lamlarini kengaytirishda ijtimoiy tarmoqlardan unumli foydalanish harakatiga tushib qoldilar. Demak, vaziyat yanada hushyorlikni talab etadi. Ha, dunyo taraqqiyoti bizga mana shunday qarama-qarshi vaziyatlarni ro'baro' qilmoqda. Muammoni yechishning esa bitta yo'li bor: u ham bo'lsa, istiqlolning ilk kunlaridan muhtaram Yurtboshimiz tomonidan ta'kidlab kelinayotganidek, tarbiyani oiladan, mahalladan, maktabdan boshlash kerak. Ma'naviy immuniteti mustahkam bo'lgan kishi hech qachon lo'ttivozlarning yolg'on aldovlariga, dabdabali va'dalariga uchmaydi. Qolaversa, mahalliy o'z domenida joylashgan va nazorat qilish imkoni bo'lgan doira.uz, muloqot.uz, sinfdosh.uz, olam.uz kabi ijtimoiy tarmoqlarni yanada rivojlantirish zamonning o'zi taqozo etib turgan vazifalardan

hisoblanadi. Taraqqiyot haqida gapirganda “Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch asarida keltirilgan Mahmudxo‘ja Behbudiyning fikrlari esga tushadi: “Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo‘lur”. Xo‘sh, millatni poymol etmasdan taraqqiyotni olg‘a surish va bu yo‘lda “o‘rgimchak”lardan ozod bo‘lishning yo‘li qanday? O‘shanda muhtaram Prezidentimiz-ning so‘zlari esimga tushadi: “Fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashmoq kerak”. Ular bilan kurashish uchun sayt yaratish bo‘yicha ilmiy salohiyat kuchli bo‘lishi kerak va biz aynan o‘sha ilmimiz va boy mafkuramiz bilan qarshi turishimiz zarur. Ilmiy salohiyatimiz tufayli ular bilan bemalol kurasha olsak, ularning jaholatini yengishda esa ma'rifatimiz qo‘l keladi. Bir so‘z bilan aytganda, internetda o‘zgacha muhitni yaratishimiz zarur. Keyin bu muhit shunday bir ummonga aylanadiki, uning ichida tengsiz ma'naviyatimiz, tubsiz madaniyati-miz, davlatimizning jonkuyar siyosati o‘z ifodasini topgan bo‘ladi. Qarabsizki, bizdan keyingi avlod aynan o‘sha olamda sayr qiladi, “o‘rgimchak”lar bizga xavf sola olmaydi. Yuqorida bayon etilgan milliy tarbiyani o‘quvchilar ongiga singdirish va “Ommaviy madaniyat”ga o‘quvchilarning kirib qolishlarini oldini olish, “O‘rgimchak to‘ri”ga tushib qolish va virtual olamdan asrash maqsadida kerakli chora-tadbirlarni ko‘rish oila, maktab va jamoatchilik hamkorligi talab ertiladi. Hamkorlik ishlari esa o‘z navbatida tizimli izchillikda olib borilishi zarur. O‘z maqsadi, shakl, usul va bosqichlariga ega bo‘lgan har qanday tadbir samara berishi tabiiy. Albatta, ushbu natijaga erishish uchun oldindan reja tuzib olish zarur. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, hamkorlik ishlarini samarali olib borish maqsadida o‘quvchilar o‘rtasida ommaviy madaniyatni bartaraf etish bo‘yicha “Ommaviy madaniyatga qarashi kurashish” chora-tadbirlari rejasini tuzib chiqdik. Namuna sifatida quyidagi chora-tadbirlar rejasini keltiramiz.

“Ommaviy madaniyatga qarashi kurashish” chora-tadbirlari rejasini

№	Bajariladigan ishlar mazmuni	Muddati	Mas’ullar
---	------------------------------	---------	-----------

1	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – hayotimiz kafolati»	Reja asosida	Sinf rahbari Hamkorlik tashkilotlari
2	Ijtimoiy tarmoq - virtual qarmoqmi?»	Reja asosida	Sinf rahbari Hamkorlik tashkilotlari
3	«O'rgimchak to'ri»dan ogoh bo'ling!	Reja asosida	Sinf rahbari Hamkorlik tashkilotlari
4	Farzand tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar va ularni oldini olishda jamoatchilikning roli»	Reja asosida	Sinf rahbari Hamkorlik tashkilotlari
5	Diniy ekstremizm – yoshlar kelajagiga tahdid»	Reja asosida	Sinf rahbari Hamkorlik tashkilotlari
6	Giyohvandlik - asr vabosi»	Reja asosida	Sinf rahbari
7	Odam savdosiga qarshi kurash - davr talabi»	Reja asosida	Sinf rahbari
8	Hayot – bebaho ne'mat, o'z joniga qasd qilish – kechirilmas holat»	Reja asosida	Sinf rahbari tashkilotlari

XULOSA

Olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijalarining ko'rsatishicha, 3-sinf o'quvchilarida oila, maktab jamoatchilik hamkorligini shakllantirishda uyushqoqlik, birdamlik va birgalik harakatlari muammoning ijobiy yechimini kafolatlaydi. Tajriba — sinov ishlarining natijalariga muvofiq quyidagi xulosalarga kelindi:

1. 4-sinf o'quvchilarida oila, maktab, jamoatchilik hamkorligi mazmunini o'rganish, bu boradagi hamkorlik darajasini aniqlashga yo'naltirilgan harakat muammoning nazariy va amaliy yechimlari to'la hal etilmaganligini ko'rsatdi. O'quvchilar faoliyatini bevosita va bilvosita kuzatish ularda tabiatni oilaga, mahallaga bo'ysunish xissi mavjud, biroq uning chuqur va barqaror xususiyatga ega emasligidan dalolat berdi. Oila va mahallaning maktab bilan o'zaro birga ishlashi 3-sinf o'quvchilarida oila, maktab, jamoatchilik hamkorligi shakllanganligiga bog'liq. Bu g'oya 3-sinf o'quvchilarida oila, maktab, jamoatchilik hamkorligini shakllantirish masalasining dolzarb pedagogik muammo sifatida asoslashga imkon beradi.

2. 4-sinf o'quvchilarida oila, maktab, jamoatchilik hamkorligini shakllantirish jarayonida o'ziga xos psixologik — pedagogik xususiyatlar ko'zga tashlanadi. Jumladan, bu yosh davri o'quvchilari oila a'zolari, kattalar ko'magiga muxtojdir. Biroq bu muxtojlik o'rganilayotgan ob'yektning mohiyatini to'la ochib bera olmaydi. SHu sababli 3-sinf o'quvchilarida tizimli oila, maktab, jamoatchilik hamkorligini shakllantirish va ularda hamkorlarga tayangan holda ishlashni qaror toptirish maqsadga muvofiqdir.

3. 4-sinf o'quvchilarida oila, maktab, jamoatchilik hamkorligini shakllantirishning an'anaviy va samarali usullarni mavjud holati bugungi kun talablari darajasida emasligidan dalolat beradi. Tadqiqot doirasida amalga oshirilgan dastlabki tajriba natijalarining ko'rsatishicha, buning asosiy sabablaridan biri o'quvchilar bilan sinf rahbarining yakka o'zi doimiy faoliyat olib borishidadir.

samaradorligini tasdiqladi.

TAVSIYALAR

1.Sinf rahbari o'z ish faoliyati davomida 4-sinf o'quvchilarida oila, maktab, jamoatchilik hamkorligini shakllantirish bo'yicha trening-seminar mashg'ulotlarini, tadbir va kechalarni tashkil etishiga alohida ahamiyat berish.

2.4-sinf o'quvchilarida oila, maktab, jamoatchilik hamkorligini shakllantirishda hamkorlikning o'zaro aloqadorlik va bogliqlikning yuzaga kelishiga alohida e'tibor qaratish.

3.4-sinf o'quvchilarida oila, maktab, jamoatchilik hamkorligini shakllantirishga oid metodik majmualarning chop etilishiga erishish.

4.Pedagog xodimlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimida 4-sinf o'quvchilarida oila, maktab, jamoatchilik hamkorligini shakllantirish bo'yicha ilg'or texnologiyalar asosida ishlash bo'yicha malakalarini shakllantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.«O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori»– Toshkent: Sharq, 1997-65 b.
- 2.“O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi konsepsiyasi”. T.: “O'qituvchi”, 1998.
3. Karimov I.A. «O'zbekiston kelajagi buyuk davlat». Toshkent: O'zbekiston 1992-62 b.
4. Karimov I.A. «Yangi uyni qurmay turib, eskisii buzmay» – Toshkent: O'zbekiston 1993. – 24 b.
5. Karimov I.A. «Ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayot-pirovard maqsadimiz». 8-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2000.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent. 2008.
7. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillik ostonasida. – Toshkent. 2012.

- 8.Yo`ldoshev.H.Q.“Barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi konsepsiyasi”. T.: 2004.
9. Frolov P.T. Yosh direktor maktabi. T.: “O`qituvchi”, 1991.
- 10.Hasanboeva O. Uzaytirilgan guruhlar tarbiyaviy ishlar.T.:“O`qituvchi”, 1994.
- 11.Inomova K.M. «Oilada bolalarning ma`naviy-axloqiy tarbiyasi» Toshkent: Fan, 1999, – 151 b.
- 12.Jo`raevA.J. Tarbiyaviy darslarni o`tish.T.:“O`qituvchi”,1994.
13. Karimova.O.A. “Oila, farzand va jamiyat”. T.:“O`qituvchi”,1991.
- 14.Mavlonova,R, Raxmonqulova.N, Normurodova.B. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” – T.: “Tib-kitob”, 2010.
- 15.Musurmonova O. «Oila ma`naviyat-milliy g`urur». – Toshkent:O`qituvchi. 1999, – 200 b.
16. Munavvarov A.K. «Oila pedagogikasi». – T.: O`qituvchi, 1994.
17. Munavvarov A.K. Oila pedagogikasi. T.: “O`qituvchi”. 1994.
18. Mirqosimov M. Maktabni boshqarishning nazariy va pedagogik asoslari. T.: 1996
19. Nishonova.S. “Kamil inson tarbiyasi” – T.:“Istiqlol”, 2003 y.
20. Otavaliyeva.O`. “Bola tarbiyasida bog`cha va oila hamkorligi”. T.:“O`qituvchi”. 1994.
- 21.Rasulova.Y, Nurmatova.O. “Pedagogika” o`quv qo`llanma –T.:“Voriz”, 2009.
22. “Tarbiyaviy ish metodikasi”(pedagogika institutlari uchun o`quv qo`llanma). T.: “O`qituvchi”, 1991.
23. Uzoqov X., G`ozieva E., Tojiev A. Oila etikasi va psixologiyasi. T.: “O`qituvchi”. 1992.
- 24.Xo`jamurotova.S. “KUG tarbiyachilari uchun ma`ruza matnlari” Urganch. 2009.
- 26.“Mustaqillik” izohli ilmiy-ommabop lug`at. Toshkent“Sharq”,2006
27. Ziyonet
28. Eduportal
29. Google.com